

## **BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHINING LINGVISTIK BOSQICHLARI**

*Ochilova Mohichehra Tolib qizi*  
*O'zbekiston Milliy Universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda bolalarning nutqiy rivojlanish jarayonida o'tadigan asosiy lingvistik bosqichlari yoritilgan. Har bir bosqichda bola tilining fonetik,leksik, Grammatik va pragmatik jihatdan shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, nutqiy rivojlanishga ijtimoiy va psixologik omillarning ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy rivojlanish, lingvistik bosqichlar, bola tili, fonetika, grammatika, leksika.

**Tadqiqotning dolzarbligi:** Bolalar nutqiy rivojlanishi masalasi tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogikaning kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, erta yoshdan boshlab bola tilining shakllanishi uning ijtimoiylashuvi va aqliy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy muammolari ko'payib borayotgani ushbu mavzuni chuqur tahlil qilish zaruriyatini oshirmoqda. Shuningdek, bola tilining bosqichma- bosqich rivojlanishini o'rganish orqali logopedik yondashuvlar samaradorligini oshirish mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi :** tadqiqotning asosiy maqsadi- bolalar nutqiy rivojlanishining lingvistik bosqichlarini aniqlash, har bir bosqichdagi fonetik, leksik,Grammatik xususiyatlarni tahlil qilish hamda bu jarayonga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdir.

**Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar :** Bolalar nutqiy rivojlanishining asosiy lingvistik bosqichlarini tizimlashtiradi, har bir bosqich uchun xarakterli til vositalari va ularning rivojlanish ketma-ketligini aniqlanadi, pedagogik amaliyotda foydalanish mumkin bo'lgan nazariy xulosalar ishlab chiqiladi, nutqiy rivojlanishda kuzatiladigan kamchiliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

**Xulosa :** Bolalar tilining rivojlanishi uzviy va bosqichma- bosqich kechadi. Har bir lingvistik bosqichda bolaning idrok,tafakkur va ijtimoiy tajribasi bilan til o'zaro chambarchas bog'liq. Ushbu bosqichlarni chuqur o'rganish logopedik va pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar ro'yhati**

1. Ayupova M.Yu., X.M.Po'latova. Logopedik ritmika. Darslik. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

2. L.R.Mo'minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. D.A.Nurkeldiyeva, M.Yu.Ayupova, Z.M.Axmedova “Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar” Toshkent 2007
3. Muminova L, Shoaxmedova S. ,, Rivojlanishida nuqsoni bo'lganbolalar va o'smirlarga xozirgi zamon logopedik yordamni tashkil etish :muammo va yechimlar" maqola Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2022